

«Uzbekistan Helicopters» MChJ issiqlikni hisoblash asbobini xarid qilish, oʻrnatish, raqamli-oʻxshash oʻzgartirgichlarni tekshirish, raqamli asbobdagi haroratni masofadan nazorat qilish qurilmasi chizmalarining profilaktikasi va maʼlumotlarni bosib chiqarish bilan koʻrsatishlarni kompyuterga tushirish boʻyicha ishlarni bajarishga tanlov kimoshdi savdosini eʼlon qiladi.

Tanlovni oʻtkazish muddati 2020-yil 09.11.dan 2020-yil 22.11.ga qadar.

1. Obʼyekt manzili: «Uzbekistan Helicopters» MChJ Toshkent shahri «Islom Karimov nomli Toshkent xalqaro aeroporti hududida joylashgan. Telefon: +99890 98457354,

e-mail: helicopters@uzairways.com.

2. Kimoshdi savdo tanlovining mazmuni: belgilangan shaklda issiqlikni hisoblash asbobini xarid qilish, oʻrnatish, raqamli-oʻxshash oʻzgartirgichlarni tekshirish, raqamli asbobdagi haroratni masofadan nazorat qilish qurilmasi chizmalarining profilaktikasi va maʼlumotlarni bosib chiqarish bilan koʻrsatishlarni kompyuterga tushirish.

3. Obʼyekt tavsifi: maʼmuriy binolari bilan 2 qavatli imorat (541m²).

4. Toʻlov shartlari: shartnoma imzolangan paytdan boshlab 15 bank kuni davomida - 15% oldindan toʻlov, qolgan 85% - ishlar bajarilganidan soʻng 15 bank kuni davomida.

5. Bajarish muddati: 10 ish kuni.

6. Ijrochi uchun alohida shartlar:

- ishlarni ishlab chiqarish uchun muvofiq ruxsat beruvchi hujjatlarning borligi;
- bankdan K-2 yoʻqligi haqida maʼlumotnomaning borligi;
- soliq nozirligidan soliqlar boʻyicha qarzdorlik yoʻqligi haqida maʼlumotnomaning borligi.



[Download PDF](#)